



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 12-dekabr

706-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 14-noyabrdagi PF–185-sonli Farmoni, shu haqdagi viloyat hokimining 2024-yil 3-dekabrdagi 577-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 14-noyabrdagi PF–185-sonli Farmoni, shu haqdagi viloyat hokimining 2024-yil 3-dekabrdagi 577-6-0-Q/24-sonli qarorini tumanda ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 14-noyabrdagi PF–185-sonli Farmoni, shu haqdagi viloyat hokimining 2024-yil 3-dekabrdagi 577-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan:

quyidagilar bolalarni ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari etib belgilanganligi;

bolaning oila muhitida tarbiya topishini ta‘minlashga qaratilgan ijtimoiy himoya tizimini yo‘lga qo‘yish, oilani qo‘llab-quvvatlash va kambag‘allikdan chiqarishga ko‘maklashish orqali ijtimoiy yetimlikning oldini olishi;

yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni jamiyatga integratsiya qilishga qaratilgan xizmatlar ko‘lamini kengaytirishi;

yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ularning eng ustun manfaatlaridan kelib chiqib, muqobil shaklda joylashtirishi;

yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni muqobil joylashtirishning ixtisoslashtirilgan tarbiya muassasalariga joylashtirish shaklini bosqichma-bosqich noinstitutstionallashtirishi;

yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning huquq hamda manfaatlarini himoya qilish va ularning vakilligini ta‘minlashning samarali tizimini joriy etishi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining (keyingi o‘rinlarda - Agentlik) bolaning eng ustun manfaatlaridan kelib chiqqan holda muqobil joylashtirishning quyidagi shakllarini belgilash to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilganligi: vasiylik va homiylikni belgilashi;

bolani farzandlikka olishi;

tutingan (foster) oilaga (oilaga tarbiyaga (patronat) olish hamda oilaviy bolalar uyiga (qisqa muddatli, uzoq muddatli yoki ixtisoslashgan joylashtirish xizmati) berishi; ixtisoslashtirilgan tarbiya, sog‘lomlashtirish va tibbiy-ijtimoiy muassasalarga joylashtirishi;

shunday tartib o‘rnatiladiki, unga muvofiq:

a) 2025-yil 1-yanvardan boshlab mehribonlik uylari va bolalar uylariga kam ta‘minlangan oilalarning farzandlarini vaqtinchalik qabul qilish tartibi bekor qilinishi. Bunda “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida hokim yordamchisi va ijtimoiy xodim tomonidan oilani kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha choralar ko‘rilishi;

b) 2025-yil 1-fevraldan boshlab og‘ir hayotiy vaziyatda va yaqin qarindoshlari ko‘magisiz qolganligi natijasida farzandini tarbiyalashdan voz kechmoqchi bo‘lgan onalar, shu jumladan, homilador ayollar (keyingi o‘rinlarda - og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan onalar) uchun bolalar uylarida “Onalar maskani” xizmati yo‘lga qo‘yiladi. Bunda: og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan onalar va ularning bolalari (4 yoshga to‘lmagan) 1 yilgacha bo‘lgan muddatga ijtimoiy shartnoma asosida vaqtincha boshpana bilan ta‘minlanishi;

og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan onalarga ijtimoiy, huquqiy, psixologik va tibbiy xizmatlar ko‘rsatiladi, ularda onalik va kasbiy ko‘nikmalar shakllantirilishi;

“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari (keyingi o‘rinlarda – “Inson” markazlari) og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan onalarning kasb-hunar egallashi va bandligini ta‘minlashga ko‘maklashishi;

c) 2025-yil 1-martdan boshlab Kambag‘al oilalar reestriga kiritilgan va rasmiy band bo‘lgan yolg‘iz ona (ota)ga ijtimoiy shartnoma asosida bir nafar farzandi uchun bola(lar) uch yoshga to‘lguniga qadar maktabgacha ta‘lim xizmatidan foydalanish uchun Ijtimoiy himoya davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining bir yarim baravarigacha miqdorida moddiy yordam berilishi;

bunda agar bolalar egizak bo‘lsa, moddiy yordam egizaklarning har biri uchun berilishi;

belgilab qo‘yilishicha, 2025-yil 1-fevraldan boshlab:

a) ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni aniqlash bo‘yicha:

ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning ijtimoiy holati va turmush sharoitlari “Inson” markazlari tomonidan kompleks baholanishi hamda baholash natijalari asosida bolalarning ijtimoiy maqomi belgilanishi;

yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan, shuningdek, zo‘ravonlikdan jabr ko‘rganligi sababli oilasidan olingan bolalarning ijtimoiy maqomi va muqobil joylashtirish shakli belgilanguniga qadar ularni olti oygacha bo‘lgan muddatga oilaviy bolalar uyiga qisqa muddatli joylashtirish tartibi joriy etilishi;

bolalarni muqobil joylashtirish shakllari bo‘yicha joylashtirish (bundan farzandlikka va tutingan (foster) oilaga olish mustasno) “Inson” markazlarining, oilaviy bolalar uyini tashkil etish va tugatish Agentlik hududiy boshqarmasining qarori asosida amalga oshirilishi;

yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar tutingan (foster) oilaga “Inson” markazlari va bolani tarbiyaga olgan shaxslar o‘rtasida tuziladigan shartnoma asosida

joylashtirilishi. Bunda mazkur Farmon qabul qilinguniga qadar tutingan ota-onalar bilan tuzilgan bitim va (yoki) bolani joylashtirish to'g'risida qabul qilingan qaror bolalar muqobil joylashtirish shakllari bo'yicha joylashtirilgan muddat tugagunga qadar o'z kuchini saqlab qolishi;

b) yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar hamda ularni muqobil joylashtirish shakllaridan biri bo'yicha olish istagini bildirgan shaxslarning hisobini yuritish bo'yicha:

yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash, bolalarni hamda ularni muqobil joylashtirish shakllaridan biri bo'yicha olish istagini bildirgan shaxslar (keyingi o'rinlarda - nomzod)ni hisobga olish "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimida (keyingi o'rinlarda – "YAMIH" AT) amalga oshirilishi;

nomzodlardan arizalarni O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali qabul qilish imkoniyati yaratilishi;

nomzodlardan talab qilinadigan ayrim turdagi hujjatlar "Inson" markazlari tomonidan "Elektron hukumat" tizimining idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali mustaqil olinishi;

yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning joylashtirilganligi, bolalar uchun ishlab chiqilgan individual rivojlanish va integratsiya rejalari hamda ularning ijrosi monitoringi natijalari bo'yicha ma'lumotlar "YAMIH" ATga kiritib borilishi;

c) ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni muqobil joylashtirish shakllari bo'yicha:

oilaviy bolalar uyini tashkil etish uchun oilaning er va xotindan iborat to'liq oila bo'lishi talabi bekor qilinishi hamda 30 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolariga oilaviy bolalar uyini tashkil etishga ruxsat etilishi;

oilaviy bolalar uyini tashkil etgan fuqarolar o'zini o'zi band qilgan shaxslar sifatida e'tirof etilishi hamda ularga o'z majburiyatlarini boshqa shaxslarga yuklashiga yoxud uchinchi shaxslarni jalb qilishiga yo'l qo'yilmasligi;

ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar oilaga tarbiyaga (patronat) faqat ularning qarindoshlariga berilishi;

tutingan (foster) oilada tarbiyalanayotgan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning yashash xarajatlari, shuningdek, oilaviy bolalar uyini tashkil etgan fuqarolarga bolani tarbiyalagani (parvarishlagani) uchun davlat tomonidan ajratiladigan mablag'lar tarbiyalanuvchilar umumiy o'rta, o'rta maxsus va boshlang'ich professional ta'lim muassasalarini tamomlaguniga qadar saqlab qolinishi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-330-son qaroriga muvofiq:

2025-yil 1-apreldan boshlab ijtimoiy yetimlikning oldini olish, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga individual yondashuv asosida oilaga yaqin muhitda g'amxo'rlik ko'rsatish hamda tarbiyalash xizmatini ko'rsatish maqsadida mahallalarda oila shaklidagi kichik hajmli bolalar uylari tashkil etilishi;

dastlabki bosqichda mazkur tadbirlar Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan 2024-yilda Toshkent shahrida amalga oshirilishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinganligi;

2025-yil 1-yanvardan boshlab bosqichma-bosqich Andijon viloyatida Agentlik tizimidagi tibbiy-ijtimoiy muassasa huzurida, Toshkent shahri hamda Samarqand viloyatida Agentlik tizimidagi

yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish uchun tarbiya muassasasi huzurida kichik hajmli bolalar uyi tashkil etilishi;

2025-yil 1-apreldan boshlab ijtimoiy yetimlikning oldini olish, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga uzoq yoki qisqa muddatli g'amxo'rlik ko'rsatish hamda tarbiyalash xizmatini ko'rsatish jarayoniga nodavlat sektorni jalb etishning quyidagi tartibi joriy etilganligi:

nodavlat tashkilotlar tomonidan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga uzoq yoki qisqa muddatli g'amxo'rlik ko'rsatish hamda tarbiyalash xizmatini ko'rsatish qonunchilikka muvofiq Agentlik bilan tuziladigan davlat ijtimoiy buyurtmasi, autsorsing yoki boshqa turdagi shartnomalar asosida amalga oshirilishi;

nodavlat tashkilotlar tomonidan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga uzoq yoki qisqa muddatli g'amxo'rlik ko'rsatish hamda tarbiyalash xizmatini ko'rsatish uchun joylashtiriladigan bolalar soni Agentlik tomonidan belgilanishi;

nodavlat tashkilotlar tomonidan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga uzoq yoki qisqa muddatli g'amxo'rlik qilish hamda tarbiyalash xizmatining ko'rsatilishi "Inson" markazlari tomonidan monitoring qilinishi;

Agentlikka yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga uzoq yoki qisqa muddatli g'amxo'rlik ko'rsatish hamda tarbiyalash xizmatini ko'rsatish bo'yicha davlat ijtimoiy buyurtmasi, autsorsing va boshqa turdagi shartnomalar bo'yicha xarajatlarni Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtirishga ruxsat berilishi;

belgilanishicha, 2025-yil 1-fevraldan boshlab "Inson" markazlari muqobil joylashtirish shakllari (bundan bolani vasiylikka, homiylikka va farzandlikka olish mustasno) bo'yicha joylashtirilgan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning qonuniy vakili hisoblanishi. Bunda "Inson" markazlariga:

tutingan (foster) oila hamda ixtisoslashtirilgan tarbiya muassasalari tomonidan bolalarga g'amxo'rlik ko'rsatish, tarbiyalash va qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa xizmatlar ko'rsatilishini nazorat qilishi;

yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning qonuniy vakili sifatida har qanday jismoniy va yuridik shaxslar bilan bo'lgan munosabatlarda, shu jumladan, sudda muqobil joylashtirish shakllari bo'yicha tarbiyaga olingan (bundanfarzandlikka olingan bolalar mustasno) bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning nomidan va ularning eng ustun manfaatlarini ko'zlab harakat qilish vazifasi yuklatilishi;

"Inson" markazlariga:

muqobil joylashtirish shakllari bo'yicha joylashtirilgan bolalarning turmush sharoitlarini, davlat tomonidan berilayotgan mablag'larning bolalar manfaati uchun sarflanayotganligini va bolalarni tarbiyaga olgan shaxslarning o'z majburiyatlarini bajarishini monitoring qilishi;

yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan, shuningdek, yolg'iz ona qaramog'idagi bolalarning moddiy ta'minot olish huquqlarini ta'minlashda aliment to'lovlari, bolaning sog'ligini tiklash va rehabilitatsiyasi uchun qo'shimcha xarajatlarni ota-ona yoki ota-onalik huquqidan mahrum qilingan shaxslardan bola foydasiga undirish bo'yicha sudga ariza (da'vo arizasi) kiritishi;

bolaning ota-onasini bedarak yo'qolgan deb topish va (yoki) vafot etgan deb e'lon qilish bo'yicha sudga ariza kiritishi;

yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga meros yoki mol-mulkka egalik qilishning boshqa shakllari asosida tegishli bo'lgan mol-mulkningular voyaga yetguniga qadar boshqa shaxslarga berishning oldini olish choralarini ko'rishi;

yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha o'z vazifalarini amalga oshirishlari uchun zarur bo'lgan axborot, hujjatlar va ularning nusxalarini barcha davlat organlari, tashkilotlar va muassasalardan so'rov asosida bepul olish huquqi berilishi;

belgilanishicha;

“Inson” markazlari bolaning sog'ligini tiklash va reabilitatsiyasi uchun qo'shimcha xarajatlarni ota-ona yoki ota-onalik huquqidan mahrum qilingan shaxslardan bola foydasiga undirish bo'yicha sudga murojaat qilganda davlat bojini to'lashdan ozod etilishi;

aliment to'layotgan ota yoki onaning moddiy ahvolidan qat'i nazar davlat yoki nodavlat muassasalarning to'liq ta'minotida bo'lgan voyaga yetmagan bolaga to'lanayotgan alimentmiqdorini sudtomonidan kamaytirish yoki uni aliment to'lashdan ozod qilish tartibi bekor qilinishi;

bolaga tayinlangan aliment miqdorini kamaytirish to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rib chiqishda “Inson” markazlari jalb etiladi. Bunda bolaning va aliment to'lovchining yashash sharoitlari “Inson” markazlari tomonidan kompleks baholanishi;

2025-yil 1-yanvardan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi “Mehr daftari” jamg'armalari amaldagi moliyalashtirish manbalari hamda mavjud qoldiq mablag'lari Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasiga o'tkazilgan holda tugatilishi;

bunda Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi tomonidan “Mehr daftari”ga kiritilgan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni qo'llab- quvvatlash tadbirlari uchun ajratilgan mablag'lar Agentlikning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalarining g'azna hisobvarag'iga ushbu hududlardagi yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar soniga mutanosib ravishda taqsimlanishi;

Agentlikning muqobil joylashtirish shakllari bo'yicha joylashtirilgan (bundan farzandlikka olingan bolalar mustasno) 14 yoshdan 23 yoshgacha bo'lgan yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan yoshlar (keyingi o'rinlarda – yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan yoshlar) uchun “Yoshlarga hamrohlik” dasturini amalga oshirish to'g'risidagi taklifi ma'qullanganligi. Bunda “Yoshlarga hamrohlik” dasturi doirasida:

a) “Inson” markazlari tomonidan:

yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan yoshlarga ijtimoiy xodim birlashtirilishi;

davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ijro etilishi majburiy bo'lgan individual integratsiya rejasi tasdiqlanadi va ijrosi monitoring qilib boriladi. Bunda individual integratsiya rejasida belgilangan tadbirlarning o'z vaqtida hamda samarali ijro etilishi yuzasidan nazorat Agentlik huzuridagi Ijtimoiy inspeksiya tomonidan amalga oshirilishi;

b) oliy ta'lim muassasalarini tamomlagan yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan yoshlar davlat fuqarolik xizmatiga tanlovsiz qabul qilinishi;

c) 2025-yil 1-yanvardan boshlab yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan yoshlarga Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan ta'lim olish, bandligini ta'minlash, davolanish hamda uy- joy sharoitlarini yaxshilash uchun ijtimoiy yordam ko'rsatilishi;

Agentlikning 2025-yil 1-yanvardan boshlab tutingan ota-onalarni tayyorlash kurslariga yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarni farzandlikka olish istagini bildirgan nomzodlarni ham qamrab olish toʻgʻrisidagi taklifiga rozilik berilganligi;

belgilanishicha, yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarni farzandlikka olish istagini bildirgan nomzodlarni hamda tutingan ota-onalarni oʻqitish Ijtimoiy himoya tizimi xodimlarining malakasini oshirish markazi tomonidan tashkil etilishi hamda muvofiqlashtirilishi;

Bolalarni ijtimoiy himoya qilish boʻyicha chora-tadbirlar dasturi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining va Oʻzbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga 2-ilovaga muvofiq oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilganligi maʼlumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlari mazkazi (E.Abduraxmanov) manfaatdor tashkilot va idoralar bilan birgalikda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrdagi PF–185-son Farmoni talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va maʼnaviy-maʼrifiy ishlar boʻyicha oʻrinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov